

TIJORAT BANKLARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH BO'YICHA KOMPLAENS NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Zikirov Xurshid Hasan o‘g‘li

“Turonbank” ATB Korrupsiyaga qarshi kurashish
komplaens maxsus boshqarmasi bosh mutaxassisi

zikirovxurshid@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida korrupsiyaga qarshi kurashish
komplaens nazorat tizimining xalqaro tajribasi o‘rganiladi. Xususan, rivojlangan
davlatlarning bank-moliya tizimlarida qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlar, uslubiyat
va me’yoriy talablarga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada komplaens nazorat tizimi
samaradorligini oshirishda xalqaro standartlar va sun’iy intelekt texnologiyalari rolini
tahlil qilish orqali mamlakatimizdagi tijorat banklari uchun amaliy tavsiyalar ishlab
chiqilgan. Ushbu tavsiyalar tijorat banklarining shaffofligini ta’minlash va xalqaro
maydonda obro‘sini yanada oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Sababi, banklar
har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim bo‘lagi hisoblanib, uning barqarorligi va
samaradorligi iqtisodiy taraqqiyot va moliyaviy xavfsizlik uchun hal qiluvchi
ahamiyatga ega. Shuningdek, bank sohasida korrupsiyaga holatlariga yo‘l qo‘yilishi
nafaqat moliyaviy resurslarning noqonuniy sarf qilinishiga, balki jamiyatda moliya
tizimiga bo‘lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Korrupsiya bank faoliyatining
shaffofligini kamaytiradi, moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini buzadi va oxir-
oqibatda iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, bank tizimida
korrupsiyani oldini olish muhim vazifa sifatida belgilanishi, bu sohada samarali
choralar-tadbirlar amalga oshirilishi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim
hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Korrupsiya, banklar, komplaens nazorat, xalqaro standartlar, sun’iy
intelekt, kleptokratlar, “whistleblowing”, AML, shaffoflik, xavf-xatar, raqamlashtirish.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, moliya sektori korrupsiyaviy xatarlarning nisbatan yuqori darajada ko‘zga tashlanadigan sohalaridan biri hisoblanganligi sababli, bu yo‘nalishda davlat tomonidan keskin choralar ko‘rilmoxda. Xususan, so‘nggi yillarda O‘zbekiston moliya-bank tizimida shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish va xalqaro standartlarga mos boshqaruva tizimini joriy etish dolzarb masalaga aylandi. Tijorat banklari faoliyatida korrupsiya xavfi kreditlash, davlat xaridlari, kadrlar siyosati, manfaatlar to‘qnashuvi va ichki nazorat mexanizmlarining sustligi kabi omillar bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, komplaens nazorat tizimini samarali yo‘lga qo‘yish nafaqat bankning barqaror faoliyatini ta’minlaydi, balki investitsion jozibadorlik va mijozlar ishonchini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) – davlat organlari va tashkilotlari hamda banklar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilishini ta’minlovchi, korrupsiya xavf-xatarlari va manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash hamda ularga bartaraf etish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish kabi qator profilaktik choralarni o‘zida mujassam etgan samarali tizimdir.¹ Aynan banklarda komplaens nazorat bo‘linmalari qonunchilik, ichki normativ hujjatlar va boshqa regulyatorga hamda xalqaro standartlarga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korruption risklarni nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy maqsad bank tizimida korrupsiyani oldini olish va xalqaro standartlar asosida menejment tizimini muvofiqlashtirishdan iborat. Bunda O‘zbekiston Respublikasi bank qonunchiligi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, Markaziy bank ko‘rsatmalari va FATF tavsiyalari huquqiy tahlili va xorijiy davlatlar bank tizimida komplaens tajribasining ijobiliy jihatlarini qiyosiy tahlillariga tayanadigan

¹ <https://anticorruption.uz/oz/korrupsiyaning-oldini-olish ва komplayens-nazorat-tizimini-joriy-etish-boshqarmasi-togrisida>

bo‘lsak, yuqorida qayd etilgan barcha majburiy va tavsiyaviy normalar amaliyotda qo‘llansa tijorat banklarida korrupsiyani oldini olish samaradorligini yanada oshirishi mumkinligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xalqaro maydonda korrupsiya global muammo bo‘lib, global yechimlarni talab qiladi. Transparency International xalqaro tashkiloti a’zosi Frank Voglning fikricha, aynan banklar noqonuniy pul mablag‘lari oqimining himoya chizig‘i bo‘lishi lozim. Sababi, yirik korruptionerlar ayniqsa banklarga muhtoj bo‘lib, ular korrupsiya orqali jinoiy yo‘llar bilan orrtirgan pul mablag‘larini xavfsiz va yashirin saqlash yo‘llarini izlaydi. G‘arbda joylashgan dunyoning barcha yirik banklari bu bo‘yicha (AML - pul yuvishga qarshi kurash) o‘zining muvofiqlik siyosatiga ega. Banklar auditorlar, ko‘chmas mulk brokerlari, san’at dilerlari, moliyaviy maslahatchilar va advokatlar bilan bir qatorda pul yuvish imkonini beruvchi markaziy o‘yinchilardir. Ular bugungi kunda noqonuniy moliyalashtirishning murakkab tizimlarini barqaror isloh qilishning bugungi ta’minlovchilari va barqaror islohoti bo‘lib, ular faoliyat ko‘rsatgandagina qisqa muddatli foydani maksimallashtirish madaniyatini jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan madaniyat bilan almashtirgandagina mumkin bo‘ladi. Barcha banklarning, haqiqatan ham barcha transmilliy korporatsiyalarning ixtiyoriy harakatlari bugungi kleptokratlar (kleptokratiya - bu hukmon sinfning davlat mablag‘larini o‘z shaxsiy manfaatlari uchun talon-toroj qilish tizimidir)ning ochko‘zliklariga qarshi turish uchun juda muhimdir.²

Jahon banki guruhi ham 20 yildan ortiq vaqt davomida o‘z mijozи mamlakatlarida korruptionsyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish ustida ishlamoqda. Jahon banki korruptionsyaning transmilliy xususiyati va ular keltirib chiqaradigan noqonuniy moliyaviy oqimlarni bartaraf etishda mijoz mamlakatlardagi zaifliklarni kamaytirish va oldini olish takomillashtirilishiga intilib, korrupsiyaga qarshi yanada integratsiyalashgan yondashuvni qo‘llamoqda.³ Bunda Jahon banki yangi korruption muammolar va imkoniyatlarni hal qilish uchun ba’zi sohalarga e’tibor kuchaytirilishi

² <https://www.transparency.org/>

³ <https://www.cmi.no/publications/3134-anti-corruption-reforms-challenges>

bilan birga amaliyotda natija bergen yondashuvlarga asoslanmoqda. Xususan, manfaatdor mulkchilikning shaffofligini mustahkamlash va noqonuniy moliyaviy oqimlarga qarshi kurashish, davlat xaridlari va shartnomalarni boshqarishda korrupsiyani kamaytirish, javobgarlik institatlari va qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda ma'lumotlar va texnologiyalardan foydalanishda innovatsiyalarni qo'llash. Asosiysi esa, bank guruhi qobiliyatli, shaffof va hisobdor institatlarni yaratish hamda eng yangi vositalar va innovatsiyalarga tayangan holda korrupsiyaga qarshi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mamlakat, mintaqaviy va global darajada ishlaydi. Jahon banki guruhining faoliyati barqarorlik va o'zgaruvchan natijalar atrofida davlat va nodavlat ishtirokchilarga natjalarni yaxshilash va jamoat yaxlitligini mustahkamlashga qaratilgan siyosat va amaliyotlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vakolatlarni shakllantirishga yordam beradi. Umuman olganda Jahon banki moliyalashtirayotgan loyihibarida mijozlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga yondashuvini va xalqaro standartlarga mosligiga alohida ahamiyat beradi.

Kembrij universiteti va Ostindagi Texas universiteti tadqiqotlariga ko'ra, butun dunyo bo'y lab banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan korrupsiyaga qarshi xalqaro qoidalarga rioya qilinmayapti.⁴ Xususan, tahlillar asosida shuni alohida takidlab o'tishim lozimki, birinchidan, banklarda komplaens bo'limlari mavjud, ammo samaradorlik past – ayrim banklarda faqat shaklan faoliyat yuritmoqda, amalda esa korrupsiyaviy risklarni chuqur baholash mexanizmi yetarli emas. Ikkinchidan, ichki nazorat va audit o'rtasida hamkorlik sust – natijada korruption vaziyatlarni barvaqt aniqlash imkoniyatlari cheklangan. Uchinchidan, xodimlarning huquqiy va axloqiy madaniyati yetarli emas – korruptionsyaning oldini olishda inson omili hal qiluvchi rol o'ynamoqda. To'rtinchidan, xorijiy ilg'or tajribalar yetarli darajada qo'llanilmayapti – masalan, "whistleblowing" (xabar beruvchi xodimlarni himoya qilish) tizimi banklarda endigina shakllanmoqda hamda bu bo'yicha aniq ko'rsatkichlar yetarli darajada emas. Besinchidan, banklarda korrupsiya bo'yicha risk xaritalari to'liq ishlab chiqilmagan.

⁴ <https://www.worldbank.org/en/programs/anticorruption-for-development>

Olingan natijalardan kelib chiqib, tijorat banklarida korrupsiyaga qarshi komplaens tizimini samarali yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi mexanizmlarni taklif etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- 1) Riskga asoslangan yondashuvni joriy etish – har bir bank tuzilmasida korrupsiya xavfini baholash va risk xaritalarini tuzish;
- 2) Xodimlar uchun muntazam treninglar – komplaens, manfaatlar to‘qashuvni, korrupsiya profilaktikasi bo‘yicha majburiy o‘quv kurslarini tashkil etish;
- 3) “Whistleblowing” mexanizmlarini kuchaytirish – anonim xabar berish kanallari va xodimlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish;
- 4) Raqamlashtirish va shaffoflikni yanada oshirish – kreditlash, davlat xaridlari va boshqa jarayonlarda inson omilini kamaytirish;
- 5) Ichki audit va komplaens bo‘limlari hamkorligini kuchaytirish – yagona monitoring tizimini joriy etish;
- 6) Xalqaro standartlarga muvofiqlik – FATF, Basel Qo‘mitasi va OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) tavsiyalari asosida korrupsiyaga qarshi ichki siyosatlarni qayta ishlab chiqish.

Xulosa sifatida tijorat banklarida komplaens nazorat tizimi korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish, mijozlar va investorlar ishonchini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Uning samaradorligini oshirish uchun riskga asoslangan yondashuv, xodimlar malakasini oshirish, raqamlashtirish va shaffoflikni keng joriy etish, shuningdek xalqaro standartlarga mos ichki tartib-taomillarni ishlab chiqish zarur. Natijada, banklar nafaqat korrupsiyadan xoli muhit yaratadi, balki mamlakat moliyaviy barqarorligiga sezilarli hissa qo‘sadi. Yirik xalqaro namunadagi bank tizimining barqarorligini tahlil qilinganda, korrupsiyaga qarshi kurash tizimi, inflyatsiya darajasi, shaffoflik va xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini qabul qilish kabi omillar ularning samaradorligiga bevosita bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yuqori korrupsiyaga qarshi reytingga ega bo‘lish bank tizimining yuqori barqarorligi bilan bog‘liq degan fikrni tasdiqlaydi. Shuningdek, bu munosabatlar mamlakatdagi inflyatsiya darajasiga va mamlakat darajasidagi

investorlarni himoya qilish darajasiga bog‘liqligi aniqlanadi. Bundan tashqari, banklar korrupsiyalashgan muhitda bo‘lganida, korrupsiyaga qarshi kurash moliyaviy barqarorlikka kuchliroq ta’sir ko‘rsatishi hisobga olinsa, korrupsiya ichki chegaraviy ta’sirga ega bo‘lishi mumkin.⁵ Hozirda mamlakatimiz tijorat banklari raqamlashtirilmoqda. Tijorat banklarining raqamlashtirilishi korrupsiya xavfini keskin kamaytiradi, lekin uni butunlay bartaraf etish uchun kuchli nazorat, shaffof qonunchilik va axloqiy madaniyat ham talab qilinadi. Banklar mijozlar uchun mobil ilovalari yoki internet-banking tizimi orqali o‘z xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratib bermoqda. Shu bilan birga, bank tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishi natijasida, xizmat ko‘rsatilishi avtomatlashtirilmoqda. Asosiysi esa, sun’iy intellekt va “big data” tahlillari orqali shubhali tranzaksiyalar tezda aniqlanadi. Bunda, banklar AML/CFT (pul yuvishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish) tizimlarini kuchliroq qo‘llashlari mumkin. Shuni alohida takidlab o‘tishim lozimki, har bir tijorat banki o‘zining avtomatlashtirilgan bank tizimiga ega. Aynan mazkur tizim orqali tijorat banklari komplaens nazorat tizimi va uning samaradorligini oshirish mexanizmlarini amaliyotda qo‘llab, juda ijobiy natijalarga erishishi mumkin. Xususan, mazkur avtomatlashtirilgan bank tizimlariga zarur ma’lumot bazalarini integratsiya qilish imkonini yaratilsa, komplaens nazorat tizimi va uning samaradorligi yanada oshiriladi. Asosiysi banklarning avtomatlashtirilgan bank tizimlariga malakali dasturchilar bilan birga zarur texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish. Natijada esa banklarning avtomatlashtirilgan bank tizimlariga zarur ma’lumot bazalarini integratsiya qilinganda, blokcheyn va sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida komplaens menejment tizimi xalqaro standartlar asosida samarali faoliyat yuritishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

REFERENCES:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

⁵ https://knowledgehub.transparency.org/assets/uploads/helpdesk/Successful_anti-corruption_reforms.pdf

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonuni (so‘nggi tahriri bilan) — davlat siyosati va qonunchilik asoslarini o‘rganish uchun asosiy hujjat.
2. <https://www.transparency.org/> — Transparency International — xalqaro korrupsiyaga qarshi tashkilotning rasmiy sayti va hisobotlari).
3. <https://anticorruption.uz> — O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy sayti va tahliliy ma’lumotlari).
4. <https://www.worldbank.org/en/programs/anticorruption-for-development> — World Bank Reports on Anti-Corruption — Jahon bankining korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha tahlillari va tavsiyalari.
5. OECD Anti-Bribery Convention — Jahon iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining poraxo‘rlikka qarshi konvensiyasi.
6. <https://www.cmi.no/publications/3134-anti-corruption-reforms-challenges>. Fjeldstad, O.H. and Isaken, J. 2008. Anti-corruption Reforms: Challenges, Effects and Limits of World Bank Support. Washington DC: Independent Evaluation Group (IEG), World Bank (IEG Working Paper no. 7) 78 p.
7. https://knowledgehub.transparency.org/assets/uploads/helpdesk/Successful_anticorruption_reforms.pdf. Marie Chêne, Transparency International 2015. Successful anti-corruption reforms.